



Mifologik bilim tuzilmalarining frazeologik sathda voqe'lanishi

(Qadimgi yunon mifologiyasi misolida)

Toshxo'jayeva N.M

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Magistratura II bosqich talabasi

Аннотация: Ушбу мақола лексиканинг муҳим қатламларидан бирини ташкил этувчимифологема компонентли фразиологик бирликларнингсемантик классификацияси муаммоларига бағишланган. Муаллиф фразиологик бирлик атамасига изох бериш билан бирга, уларнинг лингвомаданий аҳамияти ҳақида ҳам маълумот бериб ўтади. Тадқиқот натижасида мифологема компонентли фразиологик бирликларнингинсон ва унинг ҳаётий фаолиятига таъсир қилувчи омилларни номловчи, рамзий маънога эга, мифологик мавжудодларни ифодаловчиқаби ўзига хос семантик классификацияси ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: фразеология, лингвомаданият, мифологема компонентли фразиологик бирлик, семантик классификация

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам семантической классификации фразеологизмов с мифологемным компонентом, который является одним из важных уровней лексики. Автор поясняет термины фразеологизмы, а также предоставляет информацию об их лингвокультурном значении. В результате исследования была разработана уникальная семантическая классификация фразеологизмов с мифологемным компонентом, таких как наименование факторов,



вливающих на человека и его жизнедеятельность, имеющих символическое значение и репрезентирующих мифологических существ.

Ключевые слова: фразеология, лингвокультура, фразеологизм с мифологемным компонентом, семантическая классификация.

Abstract: This article is devoted to the problems of semantic classification of phraseological units with a mythologeme component, which is one of the most important levels of the lexicon. The author explains the term phraseological unit and also provides information about their linguistic and cultural significance. As a result of the research, a unique semantic classification of phraseological units with a mythologeme component, such as naming the factors affecting a person and his life activity, having symbolic meaning, and representing mythological beings, was developed.

Key words: phraseology, cultural linguistic, a phraseological unit with mythologeme component, semantic classification.

Frazeologiya tilshunoslikning yirik yoʻnalishlaridan biri boʻlib, tildagi iboralar yoki idiomalar deb nomlanuvchi qoʻzgʻalmas va yarim qoʻzgʻalmas iboralarni oʻrganishga qaratilgan. Bu iboralar koʻpincha majoziy yoki soʻzma-soʻz boʻlmagan maʼnoga ega boʻlib, ularni ichidagi alohida soʻzlardan chiqarib boʻlmaydi. Frazeologiya sohasini birinchi boʻlib oʻrgangan tilshunoslardan biri Ferdinand de Sossyur edi. F. Sossyur frazeologiyani “idiomatik iboralar va ularning tilni tushunishga taʼsirini oʻrganish,”¹ - deb taʼriflagan. U iboralar qoʻllaniladigan kontekstni tushunish muhimligini taʼkidladi, chunki bu chindan ham ularning asl maʼnosini tushunish uchun juda ahamiyatlidir. F. Sossyurning tadqiqotlarigaga asoslanib, Charlz Balli tildagi leksik birliklarining maʼno kasb etishdagi

¹Saussure, F. de. Course in General Linguistics. Cours de linguistique générale (Vol. 16). Payot, 1916.



muhim rolini ta'kidlab, frazeologiya tushunchasini kengroq yoritib berdi. Balli ba'zi so'zlar tabiiy ravishda o'ziga xos semantik va strukturaviy muvofiqligi tufayli birgalikda namoyon bo'lishini ta'kidlab, u frazeologik birliklar deb atagan hodisani yuzaga keltirdi.² Ballining so'zlariga ko'ra, bu birliklar tilning umumiy tuzilishi va uyg'unligiga yorqin hissa qo'shadi. Keyinroq I.V. Arnold: "Frazeologiya – bu odatda o'z ma'nosini o'zgartirmaydigan, doimiy birlikdagi so'zlar va so'z birliklari to'plamidir"³ degan sodda va tushunarli ta'rifni olg'a suradi. Umuman olganda, ushbu yo'nalish tilshunoslikda nisbatan yangi fan sohasidir. Uning ilk novdalari Potebnya, Shaxmatova, Fortunatova, kabi olimlarning ishlarida ildiz otgan bo'lib, faqatgina XX asrning 40 yillariga kelibgini tilshunoslikning alohida yo'nalishi maqomiga erishdi.

Mifologemalarning til sathlarida namoyon bo'lishi haqida so'z yuritir ekanmiz, ularning frazeologik sathdagi o'rni haqida alohida ta'kidlab o'tish joiz. Sababi frazeologik birliklar lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida til vakillari uchun ahamiyatli bo'lgan, ularning madaniyati va turmush tarziga singib ketgan, milliy ruhiyatini namoyon etuvchi tushunchalarni aks ettiradi. Shu sababdan FBlar milliy madaniy to'yingan birliklar⁴ deb ham yuritiladi.

FBlarni madaniy nuqtayi nazardan o'rganish fikrini dastlab Moskva Frazeologiya maktabi asoschisi V.N. Telia ilgari surdi. Uning fikricha "Frazeologiya kishining milliy va madaniy o'zligini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, u ma'lum bir lingvomadaniy jamiyatning madaniy va milliy standartlar, stereotiplari, miqlari bilan uzviy bog'liq."⁵ Ushbu nuqtada ta'kidlab o'tishimiz lozim bo'lgan muhim narsalardan biri bu iboralarning chindan ham boshqa xalqlar lug'atida uchramasligidir, uchrasa ham yuz foiz bir hil talqin qilinmasligidir.

²Bally, C. La Phraseologie. Hunter & Fils, 1909

³Арнольд, И. В Лексикология современного английского языка. Москва, 1959

⁴Галиева, М.Р. Теолингвистика: истоки, направления, перспективы. – Т.: VneshInvestProm, 2018.

⁵Telia, V.N. Russian phraseology. Semantics, pragmatics and linguocultural aspects. -Moscow, 1996



Maslovaning fikricha FBlarning asosiy vazifalaridan biri milliy va madaniy qadriyatlarni aks ettirish bilan birga borliqqa baho berish va o'z munosabatini bildirish hamdir.

Ayni shu joyda hisobga olinishi kerak bo'lgan yana bir omillardan biri bu bir xil FBlarning bir necha tillarda mavjudligi, ya'ni, ularning universalligidir. Fikrimizcha qanchalik universal bo'lmasin, ular o'zaro tildan tilga farq qiladi. Sababi ma'lum bir tilda anglashilgan ma'no boshqa bir til uchun tushunarsiz yoki to'la anglashilmas bo'lishi mumkin, ya'ni har bir tildagi so'z birikmalari o'ziga xos etimologiyaga ega bo'lib, ular anglatadigan ma'noning nozikliklari, sirliligi boshqa bir tildagi ekvivalenti bilan aynan mos kelishi deyarli uchramaydigan holat.

FB tasnifi o'ziga hos yondashuv talab qiladigan masaladir. Umuman olganda Fblarni semantik, etimologik, strukturaviy, tematik kabi turli yondashuvlar bilan sinflashimiz mumkin.

Semantik nuqtayi nazardan milliy belgilar FBda ikki usulda namoyon bo'lishi mumkin:

- idiomatik ma'noga ega FBlar ko'rinishida
- milliy o'ziga xoslik komponentiga ega FBlar ko'rinishida ⁶.

Birinchi guruhdagi Fblar boshqa tillarda ekvivalenti bo'lmagan idiomatik ma'noga egaligi bilan harakterlanadi. Ularga yunon miflari komponentiga ega FBlarni katta qismi kiradi. Misol o'rnida *"apple of discord"* so'z birikmasini ko'rib chiqamiz. Ushbu turg'un birikma orqali anglashiladigan ma'no o'quvchida u bilan bog'liq ensiklopedik bilim tuzilmalarini faollashtiradi: ma'buda Fetida va Peleyning nikoh to'yi, to'yga taklif qilinmagani uchun alamidan nikoh dasturhoniga Hesperidlar bog'idan uzilib *"to the fairest"* deb yozilgan oltin olmani tashlagani buning ortidan ma'budalar Hera, Afina va Afroditalar

⁶Ашурова, Д.У., Галиева, М.Р. Cultural linguistics. – Tashkent, 2019.



orasida kelib chiqqan nizo haqidagi mif jonlanadi. Aslida esa bu bilim tuzilmalari ushbu soʻz birikmasi anglatadigan ilk(yuzaki) maʼlumot boʻlib, agar yanada ilgarilasak, ushbu tortishuv aslida boshlangʻich nuqta ekanini, undan keyingi voqealar rivojida ular orasidagi mojaroni hal qilish masʼulyati choʻpon yigit Paris zimmasiga tushganini bilishimiz va dunyodagi eng goʻzal ayol Elenani vaʼda qilgan Afrodita tortishuv gʻolibasiga aylanganini bilishimiz mumkin. Oʻz navbatida Yelenaning olib qochilishi Troya urushining boshlanishiga olib keladi. Anglashiladiki, *"apple of discord"* kichik va ahamiyatsiz boʻlishiga qaramay, katta va kutilmagan koʻngilsizliklarga olib keluvchi narsa va hodisalarning obrazli ifodasiga aylangan. Bu kabi iboralar ingliz tilida koʻplab uchraydi, yana bir FB *"Icarian ambition"* ni misol oʻrnida olsak, oʻz navbatida ushbu mif komponentli ibora manmanligi tufayli yelim qanotlari erib suvga qulab halok boʻlgan Ikar haqidagi afsona syujetini tinglovchi koʻz oʻngida gavdalantiradi. Ulkan va haqiqatdan yiroq maqsad va orzulari bor, ammo ularni roʻyobga chiqarish uchun malaka va imkoniyatlari yetarli boʻlmagan kishilarni tasvirlashga qoʻl keladigan ushbu ibora natijasi ogʻriqli boʻlgan harakatni tasvirlash uchun ideal darajada mos keladi.

Ikkinchi guruh FBlari komponentlari milliy realiadan tashkil topgan boʻlib, mif komponentli iboralar ushbu guruhga taalluqli emas, sababi ularning kelib chiqishi yunon xalqi miflariga borib taqaladi. Shu oʻrinda esga olib oʻtishimiz kerak boʻlgan yana bir maʼlumot bu FBlar kelib chiqishiga koʻra oʻzlashma, tillararo va til ichida kabi guruhlariga boʻlinishi va biz oʻrganayotgan soʻz birikmalari aynan ikkinchi guruhga oid ekanligidir.

Mifologik komponentlarni oʻzida jamlagan FBlarni klassifikatsiyasi oʻziga hos yondashuv talab etuvchi masalalardan biri boʻlib, bunda ularning etno-madaniy asoslari, ular tashiydigan psixo-emotsional maʼnolar va tarjimadagi qiyinchiliklar ham inobatga olinishi kerak. Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda biz quyidagi semantik tasnifni ishlab chiqdik.



I. Birinchi guruhni shartli ravishda **inson va uning hayotiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni nomlovchi mifologik komponentli frazeologik birliklar** deb atadik. O'z navbatida ularni quyidagi kichik guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) Insonning tashqi ko'rinishi: *Venus' charm, Helen of Troy, Pan-like,*
- 2) Psixologik holati: *Phoenix Rising from the ashes, Orphean Descent, Morpheus realm, Atlas shrugged, Leda and the Swan, Cupid's arrow, Psyche's Love.*
- 3) Axloqiy-tarbiyaviy xususiyatlari: *Janus-faced, Protean Nature, Narcissistic personality,*
- 4) Intelektual salohiyati: *Athena's Wisdom, Prometheus's Gift, Odysseus' cunning.*
- 5) Jismoniy holati va imkoniyatlarini anglatuvchi MFBlar bo'lib, ular insonni tasvirlaydi, masalan, *Hermes' speed, Herculean strength, Olympian speed, Cyclopean strength, Titanic Effort, Herculean effort.*
- 6) Xavf-hatarni: *Pandora's Box, Trojan Horse, Circean Spell, Hydra-headed Problem.*

II. **Ramziy ma'noga ega MFBlar**: *the bird of Jove* – ma'budlar hukmdori Yupiter (Zeus)ga nisbat beriladigan qushlar qiroli burgut, *the bird of Juno* – ma'budlar malikasi Yunona (Gera)ga qiyoslanadigan madaniy qush tovu, *the bird of Minerva* – donishmandlik ma'budasi Minerva (Afina)ga nisbat beriladigan boyqush. Aslini olganda, mifologemalarning yirik qismi ramziy ma'noga ega va asosan metaforik ma'noda ishlatiladi. *Perseus' shield* - Meduzani mag'lub etish uchun qahramon Persey ishlatgan qalqon, himoya ramzi. *The labyrinth* - murakkablik, chalkashlik va o'z-o'zini kashf qilish yo'lini ramziy ifodasi, bu yunon mifologiyasida Minotavr joylashgan labirintni yodga soladi.



III. **Mifologik mavjudodlarni ifodalovchi FB** ya'ni mifonim komponentli FBlar ko'p bo'lmay, ulardan eng ko'p qo'llaniladigani *The Arabian bird*⁷ – afsonaviy qaqnus qushini nazarda tutuvchi FB bo'lib, aytishlaricha 500-600 yil yashagach bu qush o'zidan olov chiqarib yonar va kullaridan qayta tug'iladi va yangi hayot, abadiylik va umidni anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, frazeologiya lingvistikaning nisbatan yangi va jadal rivojlanib borayotgan yo'nalishlaridan biridir. Frazeologik birliklar esa nafaqat til birliklari, balki lingvomadaniy ma'lumotlar manbaii hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bally, C. La Phraseologie. Hunter & Fils, 1909
2. https://twww.examples.com/allusion/allusion-examples.html#google_vignette
3. Saussure, F. de. Course in General Linguistics Cours de linguistique générale (Vol. 16). Payot, 1916
4. Telia, V.N. Russian phraseology. Semantics, pragmatics and linguocultural aspects. Moscow, 1996
5. Арнольд, И. В Лексикология современного английского языка.- Москва, 195
6. Ашурова, Д.У., Галиева, М.Р. Cultural linguistics. – Tashkent, 2019.
7. Галиева, М.Р. Теолингвистика: истоки, направления, перспективы. – Т.: VneshInvestProm, 2018

⁷ https://twww.examples.com/allusion/allusion-examples.html#google_vignette